

Өзбекстан Республикасы
Жоқары хэм орта арнаўлы билимлендириў
министрлиги
Әжинияз атындағы
Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты



Қарақалпақстан халық муғаллими, педагогика илимлеринин кандидаты, доцент Арзы Кенжебаевич Пазыловтың 70 жыллық юбилейине бағышланып өткерилген **«Заманагөй тәлим хэм тәрбия технологиялары: тәжирийбелер, машқалалар хэм перспективалар»** атамасындағы Республикалық илимий-әмелий конференция **МАТЕРИАЛЛАРЫ**

(2022-жыл 24-май)



Нөкис-2022 ж.

A.Bekmuratov, Sh.Mambetyarov O'quv jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish.....	96
Sh.I.Botirova Adabiy ta'limda ta'lim turlari o'rtasida integratsiya.....	99
M.X.Bo'riyev U.X.Bo'riyev Yoshlarning axborot-psixologik immunitetni shakllantirish masalalari.....	102
Д.О.Вохидов Мактабгача таълим ташкилоти тарбияланувчиларида табиат хақидаги тасаввурларни шакллантиришнинг педагогик хусусиятлари.....	105
Д.Ж.Гаипов, Р.М.Асанов Янги мавзунни ўргатиш жараёнида ўқувчиларнинг амалий кўникмаларини фаоллаштиришнинг ўзига хос жиҳатлари.....	108
D. Dauletnazarova, G.Saparboeva, M.QOdirberganova Ta'lim jarayoniga zamonaviy ta'lim texnologiyalarini kiritish va ularni qo'llashdagi vazifalar.....	110
D.Dauletnazarova, N.Otajonova, Z. Xasanboyeva Pedagogika fanini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati...	112
Г.Джумамуратова, Р.Калимбетова Мактабларда четилини ўқитишда замонавий таълим – тарбия технологияларини ривожлантириш.....	113
Sh.I.Djumaniyazova Boshlang'ich sinflarda interfaol usullardan foydalanish samaradorligi.....	115
R.Esonov Innovatsion texnologiyalar va adabiyot o'qitishda virtual laboratoriyaning o'rni.....	117
С.Жумабаев Замонавий раҳбарликнинг муҳим жиҳатлар.....	120
J.Juginisova Boshlang'ish ta'limda darslarda interfaol testlardan foydalanish.....	122
E.T.Jumayev Zamonaviy texnik vositalarni o'quv jarayonida qo'llashning asosiy talablari.....	124
Г.Жумамуратова, Т.Азизова Бошланғич синфларда ўқитишнинг замонавий технологияларидан фойдаланиш.....	125
A.Z. Zaripova Tenglamalar va ularning sistemalarini yechishda fraktal grafika imkoniyatlaridan foydalanish.....	128
A.Z.Zaripova Fraktal tasvirlarni yaratuvchi dasturlarning za'monaviy ta'limdagi ahamiyati.....	130
M.Ibadullaev Zamonaviy pedagogika fanini rivojlantirishning dolzarb muammolari.....	132
Э.Ж.Кенесбаева Модулли технологиялар ёрдамида ўқувчиларнинг интеллектуал соҳаларини ривожлантиришнинг мазмуни ва моҳияти	134
G.K.Koshimova Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish.....	136
M.O.Ko'shnazarova, N.A.Hamidullaeva, O.Q.Pardayeva Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayonida o'zbektilini tutgan o'rni.....	138
M.X.Jumaniyozova S.J.Saparova Boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash.....	141
Ж.У.Шараповна Мактабгача катта ёшдаги болаларда ўз-ўзини адекват баҳолаш даражалари.....	144
M.M.Джолымбетва ўқувчилар тафаккурига ёш инкирозларининг таъсири	146

Xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. [3]

Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy taqitlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi. Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi etarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi - rivojlanishi - dizayn (qog'ozda nima bor) - ishlab chiqarish (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) - boshqa odamlar tomonidan foydalanish. [4]

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan Foydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustahil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan ibarat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibpagimova G.N. Intepfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. - 77-b.
3. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. - Ufa, 2002. - 86 bet
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009.



BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY TAYYORLASH JARAYONIDA O'ZBEKILINI TUTGAN O'RNI

M.O.Ko'shnazarova - o'qituvchi

N.A.Hamidullaeva, O.Q.Pardayeva - 2-bosqich talaba

**Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari
institute, Milliy tadqiqot universiteti**

Dunyodagi qadimiy va boytillardan biribo'lgan o'zbektili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir.

Bugungi kunda o'zbek tilining jahon miqyosida nufuziortib borayotganligi hamda uning rivojiga yuksak e'tiborqaratilayotganligi huquqiy asoslarni yanada

mustahkamlash imkonini bermoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tiling maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan[1].

Bundan 31 yil muqaddam o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan edi. Bu o'z vaqtida tom manoda olamshumul voqea bo'lgan edi. Chunki, Beruniy, Ibn Sino, Al Xorazmiy, Al Fargoniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Bobur Mirzo kabi buyuk siymolarni yetishtirgan xalq tili yo'qolish arafasiga kelib qolgan edi. Mustaqillikka birinchi qadamlar tashlanayotgan davridayoq O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan o'zbek tiliga davlat maqomi berish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu ish amalga oshirilgan edi. 1989 yil 21 oktyabrda mamlakatimizda "Davlat tili haqida"gi Qonunning qabul qilinishi davlat suvereniteti sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam edi[2]. Aynan ushbu tarixiy hujjatlarga ko'ra, o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi. Bu, vatandoshlarimiz hayotidagi unutilmas tarixiy voqega aylandi.

Shu tariqa o'zbek tili millatimiz tafakkurining bebaho xazinasini bo'lib, umustaqildavlatimizni qonun yo'li bilan himoya qiladigan asosiy ramziga aylandi[3].

Til nafaqat muomala vositasi, balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarsi va tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkoniyat yaratadi. Tillarni saqlab qolinishi uchun esa ularni qo'llab-quvvatlash zarurdir. Aynan til tufayli insoniyat u yoki bu xalqqa mansubligidan faxrlanib yashaydi. Shu sabab ham har bir xalq o'z tili saqlanib qolishi uchun harakat qiladi.

Tilni asrash va uni rivozhlantirish – bu millatning yuksalishi demakdir. [Darhaqiqat](#), buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy: "Millat tilini yo'qatmak-millat ruhini yo'qatmakdir" degan birgina so'zi tilning jamiyatda tutgan o'rnini isbotlab turibdi.

Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qo'lishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog'liq.

Demak, til davlat timsoli va mulki bo'lishi bilan birga u millatning manaviy boyligi hamdir.

Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu tufayli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi.

Shu munosabat bilan o'zbek tilining jamiyatimiz hayoti va xalqaro miqyosdagi obro'sini yana-da oshirish, til sofligini saqlash va boyitish borasida mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora yuksalib borayotganidan dalolatdir[4].

Shuningdek, yosh avlodni ona tiliga hurmat va muhabbat ruhida kamol toptirish maqsadida barcha oliy ta'lim muassasalariga "O'zbek tilini sohada qo'llanilishi" fani o'qitila boshlandi.

Ya'ni, yuqori darazada taraqqiy etgan ma'lum bir soha yoki fan doirasida mahsus o'zbek terminologiyasini vujudga keltirishdan iborat. Shuningdek, muayyan sohalar terminologiyasini o'zbek tilshunosligi terminlari bilan boyitish orqali bo'lajak mutaxassislar ongiga ixtisoslikka oid terminologiyalarni o'zbek leksikasida oson singdirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek maxsus terminologiyasi umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi. Buning natijasida tor ma'nolardagi ma'lum bir ixtisoslikka oid maxsus leksika boyib boradi. Bu esa, o'z kuchi, umumxalq tilining boyishi uchun xizmat qiladi.

Demak, o'zbek terminologiyasi leksikasi umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi.

Ma'lum bir sohaga oid o'zbek maxsus terminologiyasining rivojlanish yo'llari quyidagicha:

- ✓ boshqa tillardan so'z olish;
- ✓ yangi so'z yasash;
- ✓ ayrim fannatik kategoriyalarning leksikalashuvi;
- ✓ so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi bilan amalga oshiriladi.

Bugungi kunda muayyan sohaga oid o'zbek maxsus terminologiyasining, boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda.

U yoki bu sohaga oid o'zbek maxsus terminologik tizimining barqarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartinga solinganligi va muntazamligidir.

Shu nuqtai nazardan sohaga oid o'zbek maxsus terminologiyasining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiy, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy holat hisoblanadi. Jumladan, texnika yo'nalishlaridagi sohalarda birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chalo'tkazgich — nimo'tkazgich atamaları qo'llanilmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish, o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham o'zbek maxsus terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda doimiy tartibga solib turiladi.

O'zbek maxsus terminologiyasini tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Shu sababdan terminologiya rivojida ma'lum bir sohalarga oid o'zbek maxsus terminologik lug'atlarini nashr qilib turish maqsadga muvofiqdir.

Tan olish kerakki, o'zbek maxsus terminologiyasi ma'lum bir taraqqiyot yo'lini bosib o'tmoqda.

Umuman, o'zbek terminologiyasi sohasida ishlar o'tgan asrning 50-yillarida O'zbekiston sobiq Ittifoq narkibidagi davrda, ya'ni 1931-1937 yillarda Til va terminologiya qo'mitasi, keyinchalik 1964 yildan boshlab O'zbekiston FA Til va adabiyot institute qoshidagi Terminologiya bo'limi boshchiligida olib borilgan.

1988 yildan 2004 yilgacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika atamashunoslik qo'mitasi o'zbek tili Terminologiyasini tartibga solish va takomillashtirish bilan shug'ullanib kelgan.

Bugungi kunda dunyoda 6809 ta til mavjud. Sayyoramisda eng ko'p aholi so'zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. 341 million kishi ingliz tilini ona tili sifatida tan oladi, biroq yana 350 million kishi bu tilni ikkinchi ona tili sifatida ko'rishini ma'lum qilgan.

Demak, til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat va an'analarini saqlaydi. Haykal qo'yishga arzigulik tilimiz bor, biz bu haykalni avvalo, qalbimizda

unga bo'lgan cheksiz hurmat orqali namoyon qilishimiz, so'ngra so'zlayotgan so'zlarimiz va qilayotgan amallarimiz bilan ona tilimiz qadriini yuksaltirishimiz lozim. Biz yoshlar ham xuddi buyuk bobokalonimiz Navoiydek, tilimiz qaddini hamisha sarbaland etmog'imiz shart.

Tilimiz bilan bog'liq muammolarning yechimi - ona tilimizni sevish, uni ardoqlash bilan bog'liqdir. Shunday ekan, bir yoqadan bosh chiqarib, tilimiz himoyasi uchun birlashishimiz, ona tilimizning xalqaro miqiyosdagi obro'-etiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy omillar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqur hurmat bilan yondashimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2021 yil 1 noyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan.

2. O'zbekiston Respublikasining 21.10.1989 yildagi 3561-XI-son "O'zbekiston respublikasining davlat tili to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-109394>

3. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda 167-I-son "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi [Qonuni](https://lex.uz/ru/docs/-109394). <https://lex.uz/ru/docs/-109394>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil 21 oktyabr PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4561730>

5. Adilova S., To'xtamirzayev M. O'zbek tili / Bakalavriatning barcha yo'nalishlari rusiyzabon talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2007.

6. Mansurova G. O'zbek tili saboqlari. - T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. - 93-b.



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

M.X.Jumaniyozova - UrDU

Boshlang'ich ta'lim metodikasi dotsenti, f.f.n.

S.J.Saparova - UrDU magistri

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarni belgilab berilgan. Unda ta'limning ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon ekanligi ko'rsatilgan. [1]

Oliy Majlisga Murojaatnomasida O'z R Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday deydi: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim". [2]